Tahlil va natijalar. Globallashuv sharoitida chet tillarini bilish mutaxassislarning raqobatbardoshligi uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Biroq ko‘plab talabalar uchun chet tili darslari zerikarli yoki qiyin tuyuladi, bu esa ularning motivatsiyasini sezilarli darajada pasaytiradi. Motivatsiya ichki (shaxsiy qiziqish, bilimga chanqoqlik) va tashqi (baholar, diplom, ishga joylashish istagi) omillarning murakkab o‘zaro ta’siridir. Maqolaning maqsadi motivatsiyani pasaytiruvchi omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo‘llarini taklif qilishdan iborat. Motivatsiyani pasaytiruvchi asosiy muammolar. Talabalarning chet tili o‘rganish motivatsiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan bir nechta asosiy muammolar mavjud bo‘lib ulardan o‘quv jarayonining mazmuni va metodologiyasi zerikarli va monoton darslar: Faqat grammatika qoidalari va yodlashga asoslangan an’anaviy o‘qitish usullari talabalarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga yetarli e’ti-bor bermaydi.

Xulosa. Individual o‘quv rejalar. Har bir talabaga shaxsiy maqsadlar (kasbiy, sayohat yoki madaniy) asosida dars rejasi tuzish. Mentorlik tizimi orqali "Nega kerak?" savolini bartaraf etish. O‘qituvchilarni qayta tayyorlash: Zamonaviy metodlar (CLIL, TBLT) bo‘yicha seminarlar o‘tkazish. Chet tillari o‘qituvchilariga onlayn kurslar (Coursera, British Council) taklif etish. Resurslarni ko‘paytirish: Universitet kutubxonalariga audio kitoblar, Netflix subtitrlari va VR ilovalarini joriy etish. Bepul platformalar (BBC Learning English, YouTube kanallari) integratsiyasi. Suhbat va real hayotga yo‘naltirilgan darslar: Grammatika o‘rniga role-playing, debate va guest speakerlar (chet ellik mutaxassislar) jalb etish. Chet tilli klublar tashkil etish. Oila va jamiyat ishtiroki. Ota-onalarga seminarlar o‘tkazish, til haftaliklari va media kampaniyalari orqali jamiyatda chet tillarining ahamiyatini targ‘ib qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Istamova D. (2023). Pedagogik texnologiyalar asosida chet tilini mutaxassislik fan sifatida o‘qitish metodlarini takomillashtirish. “Til va adabiyot”, 10, 7–8 [4].

(2). Pirnazarova S.D. (2024). Chet tillarini o‘qitishda innovatsion yondashuvlar. “CyberLeninka” [6].

(3). Jahon tajribasida chet tilini o‘qitishda til o ... https://conference.uzswlu.uz/conf/user/setLocale/uz_UZ@latin

(4). O‘zbekistonda chet tillarini o‘qitish tizimi (2021- ... https://in-academy.uz/index.php/zdpp/article/download / 64583 /40627/72640

(5). View of O‘zbekistonda chet tillarining o‘qitilishi ... https://myscience.uz/index.php/nuu/article/view/365/330 Abdullayeva Sh. (2020). “O‘zbekiston talabalarining ingliz tiliga motivatsiyasi”. Toshkent, “Fan”.

Tojibayeva Nazokatxon Kobiljonovna (Oila va gender ilmiy tadqiqot instituti dotsenti, p.f.f.d., (PhD); @NKobiljonovna_Docent)

XOTIN-QIZLARGA IJTIMOIY YORDAM KO‘RSATISHDAGI PERFORMATIV HAMKORLIK ASOSLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada hozirgi kunda ijtimoiy-pedagogik amaliyotda inson omilining ahamiyati ortib borgan sari mutaxassislarning professional faoliyatida muhimlik darajasi yuqori bo‘layotgan omillarni ilmiy asoslari tahlil qilingan. Bu jarayonda “kollaborativ kompetensiya” tushunchasi markaziy o‘rinni egallaydi. Shuningdek, kompetensiya shaxsning ijtimoiy muhitda samarali muloqot qilish, jamoa bilan maqsadli hamkorlikni tashkil etish, muammoli vaziyatlarda konstruktiv yechim topish, o‘z fikrini dalillar asosida himoya qilish va umumiy natijaga mas’uliyat bilan yondashish qobiliyatini ifodalaydi.*

Kalit so‘zlar: *kompetensiya, kollaborativ, ilmiy salohiyatini yuksaltirish, xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish.*

Тожибаева Назокатхан Кобилжоновна (доцент НИИ семьи и гендера, к.м.н.; @NKobiljonovna_Docent)

ПРИНЦИПЫ ПЕРФОРМАТИВНОГО СОТРУДНИЧЕСТВА В ОБЛАСТИ ОКАЗАНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ ПОМОЩИ ЖЕНЩИНАМ-ДЕВУШКАМ

Аннотация. *В данной статье, по мере возрастания значимости человеческого фактора в социально-педагогической практике, анализируются научные основы факторов, которые приобретают все большее значение в профессиональной деятельности специалистов. В этом процессе центральное место занимает понятие «совместная компетентность». Также компетентность представляет собой способность человека эффективно общаться в социальной среде, организовывать целенаправленное сотрудничество с коллективом, находить конструктивное решение в проблемных ситуациях, аргументированно отстаивать свое мнение, ответственно подходить к общему результату.*

Ключевые слова: *повышение компетентности, коллективного, научного потенциала, защита прав и законных интересов женщин.*

Tojibayeva Nazokatkhan Kobiljonovna (associate professor of the Research Institute of Family and Gender, Ph.D.; @NKobiljonovna_Docent)

PRINCIPLES OF PERFORMATIVE COOPERATION IN PROVIDING SOCIAL ASSISTANCE TO WOMEN-GIRLS

Annotation. *In this article, as the importance of the human factor in socio-pedagogical practice is increasing, the scientific bases of the factors that are becoming more important in the professional activity of specialists are analyzed. In this process, the concept of "collaborative competence" occupies a central place. Also, competence represents the ability of a person to communicate effectively in a social environment, to organize purposeful cooperation with a team, to find a constructive solution in problematic situations, to defend his opinion based on evidence, and to approach the overall result responsibly.*

Key words: *increasing the competence, collaborative, scientific potential, protecting the rights and legal interests of women.*

Kirish (Introduction). Dunyoning qator mamlakatlarida xotin-qizlar bilan ishlovchi xodimlarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish, ularning intellektual salohiyatini oshirish, oilalarni muhofaza qilishda tizim xodimlarining mas'uliyati, kasbiy tayyorgarligi va tafakkurini shakllantirish bo'yicha qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish, sog'lig'ini saqlash, kasbga o'qitish va bandligini ta'minlash, tadbirkorlikka keng jalb etish, ehtiyojmand xotin-qizlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, gender tenglikni ta'minlash masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature reviw). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi PF-87-farmoni bilan tasdiqlangan "2022 – 2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo'yicha milliy dastur"i xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada kuchaytirish, ularning salomatligini mustahkamlash, qizlarning ta'lim-tarbiya olishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, iqtidorli va bilimli qizlarni tarbiyalash hamda ularning ilmiy salohiyatini yuksaltirish, xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirish, ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy faolligini oshirish, jamiyatda, xususan, davlat boshqaruvida ularning rolini mustahkamlash hamda gender tenglikni ta'minlash kabi dolzab masalalarga qaratilgan. Bunday keng qamrovli, mas'uliyatli va murakkab vazifalarni amalga oshirish, avvalo, mahallalardagi xotin-qizlar faollari zimmasiga tushadi. Vazifalarni samarali ado etish, ijobiy natijalarga erishish xotin-qizlar faollaridan bilim va shaxsiy namunani talab etadi, shu sababli ham bu lavozimga tajribali, shaxsiy fazilatlari bilan namuna ko'rsatgan, fidoyi va sadoqatli nomzodlar tayinlanadi.

Tadqiqot metodalogiyasi (Research Methodology). Tadqiqotning metodologikasosi xotin-qizlar bilan ishlaydigan mutaxassislarning kollaborativ kompetensiya tushunchalarini shakllantirish va rivojlantiruvchi modellarni ilmiy tahlil qilish va maqbullarini amaliyotda qo'llash.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Xotin-qizlarga ijtimoiy yordam ko'rsatishdagi hamkorlik deganda, ayollar kooperativlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va davlat organlari kabi turli subyektlarning umumiy resurslar, bilimlar va jamoaviy harakatlar orqali ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha birgalikdagi sa'y-harakatlari tushuniladi. Bu yondashuvda tarixiy va ijtimoiy to'siqlarni bartaraf etish, ayollarning ta'lim, moliyaviy xizmatlar va bozorlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, ularning iqtisodiy va ijtimoiy mustaqilligini oshirishga e'tibor qaratiladi. Birgalikda ishlash orqali ayollar qo'llab-quvvatlash tarmoqlarini yaratishlari, qarorlar qabul qilishda o'z fikrlarini bayon etishlari va yanada inklyuziv, adolatli ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmalarni yaratishlari mumkin [1;25-b.].

Xotin-qizlar bilan ishlaydigan mutaxassislar o'rtasidagi hamkorlik muloqotni yaxshilash, takroriy harakatlarni kamaytirish va har tomonlama muvofiqlashtirilgan parvarishni ta'minlash orqali xizmat ko'rsatish sifatini oshiradi. Bu hamkorlik sog'liqni saqlash va ijtimoiy ish kabi sohalarda muhim ahamiyatga ega bo'lib, shaffoflikni, ayollar mustaqilligini hurmat qilishni va axborot xurujlari hamda ishonchsizlik kabi qiyinchiliklarni yengish uchun muntazam jamoaviy tayyorgarlikni talab etadi [2;102-b.]. Samarali hamkorlikning asosiy elementlari muntazam uchrashuvlar, qo'shma treninglar, kasblararo ta'lim bo'lib, asosiy maqsad salomatlik va farovonlikka erishish uchun qarorlar qabul qilishda ayollar rolini kuchaytirishdir.

Kompetensiya – (lotincha "competo" so'zidan olingan bo'lib, "erishaman, muvofiqman, mos kelaman" ma'nolarini beradi) – kishi egallagan muayyan bilim, ko'nikma, malakalar majmuasini anglatadi. Shuningdek, kompetensiya – ma'lum bir sohada samarali faoliyat olib borish uchun zarur bo'lgan mutaxassisning ta'limiy tayyorgarligiga qo'yilgan talabdir [3;67-b.]. U davlat ixtiyorida bo'lgan, oldindan belgilan-

gan ijtimoiy talab bo‘lib, u o‘quvchi (ishchi)ning muayyan sohada samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun zarur bo‘lgan ta’limiy (professional) tayyorgarligiga nisbatan qo‘yiladi.

Kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim shaxslarning egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo‘llay olish imkoniyatidir. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim shaxslarda mustaqillik, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lish, tashabbuskorlik, mediaresurslar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o‘z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog‘lom raqobat hamda umummadaniy ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Kollaborativ kompetensiya tushunchasi zamonaviy ijtimoiy-pedagogik nazariya va amaliyotda muhim kategoriya sifatida qaraladi. U insonning jamoada samarali muloqot o‘rnatish, hamkorlikda ishlash, umumiy maqsadlarga erishish uchun o‘z faoliyatini boshqalar bilan muvofiqlashtirish qobiliyatini bildiradi. Ijtimoiy-pedagogik nuqtayi nazardan, bu kompetensiya mutaxassis, psixolog, ijtimoiy xodim va oila bilan ishlovchi mutaxassislarning professional samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir [4;52-b.].

Ijtimoiy-madaniy makon xilma-xilligi, o‘zgaruvchanligi, boyligi bilan ajralib turadi, faollarning birgalikdagi va ijodiy faoliyatga qiziqishini rag‘batlantiradi, o‘zaro munosabatlarda imkoniyatlarni kengaytirish va institutsional chegaralardan tashqariga chiqish imkonini beradi. Ijtimoiy-madaniy makon shaxsning rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni ta’minlashga hissa qo‘shishi uchun ijtimoiy-madaniy faoliyat resurslarining integratsiyasini ta’minlash zarur: ijtimoiy, tarbiyaviy va ta’limiy. Ijtimoiy-madaniy faoliyatning mavjud yo‘nalishlarini tahlil qilar ekanmiz, ularning aksariyati ishtirokchilarning boshqa odamlar bilan faol o‘zaro ta’sirini nazarda tutishini va turli xil birgalikdagi harakatlarni o‘z ichiga olishini ta’kidlaymiz. Har bir ishtirokchining tashabbusi va faolligini qo‘llab-quvvatlash uchun jamoaviy ishlashga tayyor bo‘lish, kommunikatsiya va konstruktiv o‘zaro ta’sir ko‘rsatish mexanizmlari bo‘lishi zarur hisoblaniladi.

Ijtimoiy-madaniy amaliyotlarning muhim jihati shundaki, ular ishtirokchilarning ijtimoiy faolligini rag‘batlantiradi. Bu shuni anglatadiki, ular hamkorlik, o‘zaro yordam, mas’uliyat va ijtimoiy o‘zaro ta’sirni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan bo‘lishi kerak. Inson bunday amaliyotlarda ishtirok etib, empatiyani rivojlantiradi, jamoada ishlashni o‘rganadi va umumiy muammolarni hal qilish tajribasiga ega bo‘ladi. Biroq, shuni ta’kidlash kerakki, ijtimoiy-madaniy amaliyotlarda shunchaki ishtirok etish proijtimoiy faollikning shakllanishini kafolatlamaydi. Asosiy nuqta shundaki, amaliyotchilar olingan tajribani tushunish salohiyatiga ega bo‘lishi kerak. Bu shuni anglatadiki, ishtirokchilar o‘z harakatlari haqida o‘ylash, xatolari va yutuqlarini tahlil qilish, shuningdek, olingan tajribani kasbiy yoki hayotiy maqsadlar bilan bog‘lash imkoniyatiga ega bo‘lishlari kerak. Shunday ijtimoiy-madaniy amaliyotlarni yaratish muhimki, ular nafaqat ijtimoiy xulq -atvorni rag‘batlantirsin, balki ishtirokchilarga uni hamkorlik uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarning o‘sishi nuqtayi nazaridan tushunishga yordam bersin. Masalan, teatr spektakli doirasida ishtirokchilar tarix va madaniyatni o‘rganishlari, muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishlari, jamoada ishlashni va nizoli vaziyatlarni hal qilishni o‘rganishlari mumkin.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Zamonaviy ijtimoiy-pedagogik amaliyotda inson omilining ahamiyati ortib borar ekan, mutaxassislarning professional faoliyati ko‘p hollarda jamoaviy hamkorlik, o‘zaro ishonch va hamfikrlik asosida amalga oshirilishi talab etiladi. Bu jarayonda “kollaborativ kompetensiya” tushunchasi markaziy o‘rinni egallaydi. Ushbu kompetensiya shaxsning ijtimoiy muhitda samarali muloqot qilish, jamoa bilan maqsadli hamkorlikni tashkil etish, muammoli vaziyatlarda konstruktiv yechim topish, o‘z fikrini dalillar asosida himoya qilish va umumiy natijaga mas’uliyat bilan yondashish qobiliyatini ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1).Nishonova Z. Mahalla tizimida xotin-qizlar faoliyatini tashkil etish. Toshkent, “Oila”, 2021, 160-bet.

(2).Nurmatov B. Ayollar va sog‘liqni saqlash: mahalla yondashuvi. Nukus, “Sog‘lom turmush”, 2019, 15- bet.

(3).Якунина Е.П. Коллаборативное обучение в педагогическом процессе. Санкт-Петербург, СПбГУ, 2019, 180 с.

(4).Qurbonov A. Ijtimoiy barqarorlik va oila siyosati. Toshkent, “Fan”, 2018, 220-bet.

Umirova Gulnoza Zakirbayevna (Urganch davlat Pedagogika instituti doktoranti;
e-mail: umirovagulnoza727@mail.com)

O‘SMIR YOSHDAGI O‘QUVCHILARNI MA’NAVIY-AXLOQIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASHDA GENDER YONDASHUVNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘smir yoshdagi o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash jarayonida gender yondashuvning nazariy-metodologik asoslari ilmiy jihatdan tahlil qilingan.*